

**QOBUSNOMANING HOZIRGI DAVRDAGI MA'NAVIY
AHAMIYATI.****TUROBOVA ZAYNAXOL TUYCHI QIZI****TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI O'ZBEK TILI TA'LIM YO'NALISHI
1-BOSQICH TALABASI .**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Kaykovusning “Qobusnoma” asari haqida ma'lumotlar berilgan va uning hozirgi davrdagi ahamiyati yuzasidan fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Kaykovus, Qobusnoma, hozirgi davr, tarbiya, odob-axloq, bilim, ahamiyat.

Qobusnoma-Sharq va Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan axloqiy-ta'limiy asar, fors-tojik badiiy nasrining birinchi va yirik yodgorligi. Tabariston hukumdori Shams Al-Maoliy Qobusning nabirasi Unsur Maoliy (Kaykovus) tomonidan fors tilida yozilgan va “Nasihatnomai Kaykovus” deb atalgan. “Qobusnoma” shu asarning o'zbekcha tarjimasidir, muallif asarni o'g'li Gilonshohga bag'ishlagan. Asar turk, uyg'ur, nemis, tatar, fransuz, rus va 1860-yilda o'sha vaqtda endi 16 yoshga to'lgan shahzoda Muhammad Rahimxon Feruz topshirig'i bilan buyuk shoir va mutafakkir Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan birinchi bo'lib o'zbek tiliga tarjima qilingan. Hozirgi kunda Ogahiy tarjimasining 2 qo'lyozma nusxasi O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida, yana bir qo'lyozma nusxasi Sank-Peterburgda Saltikov-Shchedrin nomidagi Xalq kutubxonasida saqlanadi.

“Qobusnoma” asarining Subutoy Dolimov tomonidan hozirgi o'zbek tiliga o'g'irilgan nusxasi Toshkentda 3 marta nashr qilingan.



“Qobusnoma” asosini Qur’oni Karim suralari, Muhammad s.a.v ning faoliyati va ko’rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyalar tashkil etadi. Asar 44 bobdan iborat. Dastlabki 4 bobi Haqni tanimoq, Payg’ambarlarning xilqati (yaratilishi), Alloh ne’matiga shukr qilmoq haqida bo’lib, qolgan 40 bobi ota-onani hurmatlash, ilmiy bilimlarni, san’atni egallash, harb, savdo, dehqonchilik ishlari va hunar o’rganish, odob-axloq qoidalariga rioya etish, farzand tarbiyasi, saxovat, farzand tarbiyasi va juvonmardlik kabi ko’plab masalalarni o’z ichiga oladi.

“Qobusnoma” asari - XII asrda yozilgan o’zbek adabiyotining durdonalaridan biri bo’lib, uning hozirgi davrdagi ma’naviy ahamiyati juda katta. Quyidagi nuqtalarda uning hozirgi zamon uchun ma’naviy ahamiyatini ko’rib chiqish mumkin:

Asarning dastlabki 4 bobi diniy-falsafiy masalalarga bag’ishlangan bo’lib, o’lim va o’liklar haqida mulohazalar, bu dunyo va narigi dunyo haqida fikrlar, namoz o’qish haqida maslahatlar berilgan. Kaykovus zamondoshlariga shukr qilish ko’rinishi Islom dinida 5 xil namoyon bo’lishini, bularning 2 tasi rizq beruvchilardan, 3 tasi rizq oluvchilardanligini aytadi, yana biri 5 vaqt namoz va ramazon oyining ro’zasi ekanligini ta’kidlaydi. Shu o’rinda ro’za atigi 1 yilda 1 oygina ekanligini, uni o’z rasm-rusmlariga rioya qilgan holda tutib, nonlarni ochlarga ulashishni, namozni yengil o’qimaslikni tayinlaydi, uni o’z o’rnida ado etmaslik din va dunyoni qo’ldan berishlikligini uqtiradi. Bu esa insonlarni o’z hayotini qayta baholashga, axloqiy va ma’naviy jihatdan to’g’ri yo’lni tanlashga undaydi.

“Qobusnoma”da axloqiy fazilatlar, oilaviy munosabatlar, adolat, hallollik kabi qadriyatlar yoritilgan. Masalan, uning “Omonatni saqlamoq zikrida” deb nomlanadigan bobida muallif iloji boricha omonat olishdan uzoq bo’lishni tayinlaydi, negaki uni asramoq oson emas, asraganda ham shunday asrash kerakki unga hech bir zahmat yetmasin. Omonat beruvchi o’ylarki omonatdan unga hech yetmaydi deb, ammo bilmaski uni saqlamoq nechog’lik og’ir ekanligini, agar omonatga biror nasa bo’lsa xalqning ko’ziga qanday yaramas inson sifatida



ko'inishini.Kaykovus yana omonat olayotganda yoki berayotganda bitta guvoh bilan olish va berishni maslahat beradi.

Oilaviy munosabatlarga to'xtaladigan bo'lsak,unga "Ota-ona haqini bilmoq zikrida"degan bobini keltirolamiz.Bu bobda ota-onani hurmat qilish maslahat berilgan,chunki , birinchidan, ota hamda ona farzandning aslidur,ya'ni uning bu yorug' dunyoda bo'lishining sababidur,ikkinchidan, bu dunyoni qaytar dunyo deyishgan,shu sababli ham hozir ota-onaga ,yaqinlarimizga,umuman hamma odamlarga qilgan yomon ishlarimiz qachondir o'zimizga qaytishi mumkin.Asardagi ushbu fikrlar bugungi kunda katta ahamiyatga egadir.Zero,farzandlar ushbu maslahatlarga quloq solib,o'z ota-onalarini hurmat qilishmoqda va o'z ota-onasining qadriga yetishmoqda.

Kaykovus,ayniqsa,axloqiy fazilatlariga katta e'tibor qaratgan,"Nafsnitiymoq va taomlanish tartibi zikrida" bobi bunga yaqqol dalildir.Muallif ushbu bobda har ishni tartib bilan qilishni,shu o'rinda ovqatlanishni ham deydi va odamlar 2 mahal:tunda va tongda ovqatlanib,xato qilishini, aslida esa tongda ovqatlanib,peshingacha ishlab ,keyingi taomlanishni peshinda qilish kerakligini va kechki ovqatni yemaslik kerakligini tayinlaydi,chunki ertalabki taom peshingacha,peshingi taom kechgacha hazm bo'ladi,lekin kechgacha taom hazm bo'lmay qolib oshqozon bilan bog'liq turli kasalliklarni keltirib chiqaradi.Bugungi kunda bu maslahatlar odamlarga to'g'ri ovqatlanishiga turtki bo'loladi desak hech mubolag'a bo'lmaydi.Hozirda hatto shifokorlar ham Kaykovusning XII asrdagi ushbu fikrlarini e'tirof etishmoqda.

Asarda hunar o'rganish,mehnat va kasbni sevish kabi mavzular muhim o'rin tutadi,hattoki bu uchun alohida "Hunar afzunlig'i bilan baland qadr va oliy ta'b bo'lmoq zikrida"deyilgan bitta bob ajratilgan.Ushbu bobda Kaykovus hunarsiz insonni tikonli butaga qiyoslagan,negaki tikon butasida ham tana bor-u foyda yo'q, hunarsiz odamda ham tana bor-u,u tananing qo'lidan keladigan ish yo'q.Hunar o'rganish nafaqat insonni moddiy jihatdan ta'minlaydi,balki uning jamiyatda hurmat qozonishiga sabab bo'ladi.Bugungi kunda ,ayniqsa,iqtisodiy beqarorlik davrida kasb-hunar o'rganish shaxsiy



mustaqillikni ta'minlash va turmush sharoitlarini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Hatto mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ko'plab nutqlarida va siyosiy dasturlarida hunar o'rganishning muhimligini ta'kidlagan va bu masalani yurtni rivojlantirishning asosiy tamoyillaridan biri sifatida ko'rgan

“Qobusnoma”da yana bir bob borki, bunga to'talmasak bo'lmaydi. Bu bob “Farzand parvarish qilmoq zikrida” bobidir. Kaykovus asarining ushbu qismida otaning farzandga bo'lgan eng katta majburiyatlaridan biri yaxshi ism qo'ymoqdir va uni oqil va bilimli ustozlarga topshirmoqdir deydi. Farzandga ilmni, kasbni, jang san'atini, suvda suzishni va shu kabi har xil hayot yo'lida zarur bo'lgan hunarlarni o'rgatishni tayinlaydi. Zero, kelajakda o'z yo'lini qiyinchiliksiz topib ketolsin. Umuman olganda, “Qobusnoma”dagi farzand tarbiyasi haqidagi fikrlar bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega, chunki ular kelajagimiz poydevori bo'lmish yosh avlodni tarbiyalashda asosiy prinsiplarni o'z ichiga oladi va zamonaviy jamiyatda axloqiy, ilmiy va ijtimoiy qadriyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

“Qobusnoma” asarining bugungi davrdagi ma'naviy ahamiyati haqida gapirganda, bu asar nafaqat tarixiy, balki axloqiy va madaniy qiymatlarni ham taqdim etadi. Ushbu asar, ayniqsa, insonning hayotda to'g'ri yo'lni tanlash, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish va axloqiy qoidalar asosida yashashga undaydi. Shuningdek, asarning ma'naviy ahamiyati shundaki, u zamon o'zgarishlariga qarshi turib vaqt osha o'tgan qadriyatlarni saqlab qolish va kelajak avlodga yetkazishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

abib Abdunazar. Unsur al-Maoliy, Qobusnoma, T., 1973 (to'ldirilgan 3-nashr), T., 1994.

aykovus. “Qobusnoma”, T-1994.

a'naviyatnomai Kaykovus. Ogahiy tarjimasi

ashimov K, Nishonova S, Pedagogika tarixi. -T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.



'zbek pedagogika tarixi(QO'LLANMA).prof. A.Zunnunov tahriri ostida .T.1997
aykovus Ibn Iskandar, "Qobusnoma". Tahririyat: M.Amin
Razi,Tehran:Elmi,2001.pp